

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARNING MA'NAVIY  
TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT  
TADBIRLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARI**

**Quvondiqov A.T**

*JizDPU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi  
kafedrası o'qituvchisi.*

[akmalquvondiqov4@gmail.com](mailto:akmalquvondiqov4@gmail.com)

+998933327110

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

<b>MAQOLA TARIXI:</b>	<i>Maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda sport tadbirlaridan samarali foydalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Sport faoliyati o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, jamoaviylik, intizom, mas'uliyat va sog'lom raqobat kabi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.</i>
<i>Received: 19.02.2026</i>	
<i>Revised: 20.02.2026</i>	
<i>Accepted: 21.02.2026</i>	
<b>KALIT SO'ZLAR:</b>	
<i>ma'naviy tarbiya, jismoniy madaniyat, sport tadbirlari, pedagogik texnologiya, sog'lom turmush tarzi, shaxs kamoloti</i>	

Bugungi globallashuv davrida jahon hamjamiyati murakkab va tahlikali jarayonlarga duch kelmoqda. Shu sharoitda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro anglashuv va hamkorlikni mustahkamlash masalalari global siyosat darajasidan tortib milliy ta'lim tizimlariga qadar asosiy vazifalardan biriga aylandi.

2026-yil 26-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyo Olimpiya Kengashining 46-Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqida qayd etganidek, «Bunday murakkab vaziyatda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashda

sportning beqiyos o‘rni bor». Bu so‘zlar sportning nafaqat xalqaro diplomatiyadagi, balki ijtimoiy va tarbiyaviy jarayonlardagi ahamiyatini yuksak baholaydi.

Sport tinchlik va do‘stlik elchisi sifatida butun insoniyatni — xususan Osiyo qit‘asi xalqlarini — birlashtirishda xizmat qilmoqda, u yerda Olimpiya harakatining do‘stlik, o‘zaro hurmat, adolat va tenglik kabi g‘oyalarini targ‘ib qilish yuqori qadrlanadi. Prezidentning fikricha, sport diplomatiyasi orqali “United Asia” — ya‘ni birlashgan, hamjihat mintaqa modeli — namoyon bo‘lmoqda, bu esa yosh avlodni tarbiyalash jarayonida sportning tarbiyaviy funksiyasini yana bir bor tasdiqlaydi<sup>89</sup>.

Shu nuqtai nazardan, umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning ma‘naviy tarbiyasini rivojlantirishda sport tadbirlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo va pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv yoshlarni jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk va jamiyatga foydali bo‘lgan shaxslar sifatida shakllantirishning samarali yo‘llarini yaratishga xizmat qiladi.

Sharqda ikkinchi muollim nomi bilan mashxur buyuk bobokalonimiz Abu Nasir Farobiy insonning ma‘naviy va jismoniy rivojlanishini bir butun sifatida ko‘rgan. Uning fikricha, yoshlarning axloqiy kamoloti, bilim olish va ruhiy barqarorligi ijtimoiy muhit, ta‘lim va tarbiya bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning ma‘naviy tarbiyasini shakllantirishda sport tadbirlari muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Farobiy ta‘lim va tarbiyani ajratib bo‘lmas deb hisoblagan, ya‘ni yoshlarning jismoniy mashg‘ulotlar orqali aql, axloq va ruhiyatini uyg‘un rivojlantirish imkoniyati mavjud. Jamoaviy sport tadbirlari nafaqat o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki do‘stlik, halollik va adolat kabi ma‘naviy qadriyatlarni o‘rgatishning samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Farobiy musiqaga bergan e‘tiborini sport jarayonlariga ham moslashtirish mumkin, jismoniy mashg‘ulotlar davomida ruhiy barqarorlik, o‘zini ifodalash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish yoshlarni ma‘naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sport tadbirlari o‘quvchilarda qat‘iyat, sabr-toqat va o‘zini nazorat qilish kabi sifatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

---

<sup>89</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo Olimpiya Kengashining 46-Bosh Assambleyasidagi nutqi, 2026-yil 26-yanvar.

Natijada, Farobiy falsafasi ta'lim, ma'naviyat va jismoniy tarbiyaning uyg'unligini ta'kidlab, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning sport orqali ma'naviy va axloqiy kamolotini shakllantirishni ilmiy asos bilan tasdiqlaydi. Bu yondashuv yoshlarni nafaqat jismonan sog'lom, balki ruhiy va ma'naviy jihatdan yetuk, jamiyatga foydali shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Turli mutaxassislar va olimlar yoshlar tarbiyasida, xususan, ularga ma'naviy tarbiyani singdirishda turlicha yondashuvlar va fikrlarni ilgari surishadi.

Mutaxassislarning fikricha, yoshlar ongida ma'naviy tarbiya shakllantirish yoshlik va o'smirlilik davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu davrda o'quvchi-yoshlar turli ta'sirlarga beriluvchan bo'lishlari kuzatilgan. Shu sababdan, ushbu davrda ularning har tomonlama tarbiyalanishi va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlarini oldini olish zarur.

Jismoniy madaniyat va sport tadbirlarida ma'naviy tarbiyani o'rganish uchun avvalo jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining vazifalarini sanab o'tish lozim. Sport nazariyasidan ma'lum bo'lishicha, jismoniy madaniyat va sportning:

- musobaqa vazifasi;
- sog'lomlashtirish vazifasi;
- g'oyaviylik vazifasi;
- estetik vazifasi;
- axloqiy-tarbiyaviy vazifasi;
- ijtimoiy-siyosiy vazifasi;
- baynalminakchilik vazifalari mavjud.

Ushbu vazifalar zamirida oquvchilarda quyidagi tuyg'ularni mijassamlashtiradilar:

➤ Musobaqa vazifasi – sport tadbirlari o'quvchilarni raqobatga tayyorlash, intizom va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi;

➤ Sog'lomlashtirish vazifasi – jismoniy mashg'ulotlar va sport faoliyati organizmni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish va jismoniy holatni yaxshilashga qaratilgan;

➤ G'oyaviylik vazifasi – sport orqali o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlar, ezgu g'oyalar va milliy-madaniy ideallarni singdirish imkonini beradi;

➤ Estetik vazifasi – jismoniy tarbiya va sport harakatlarining go'zalligi, ritmi va uyg'unligi o'quvchilarda estetik didni rivojlantiradi;

- Axloqiy-tarbiyaviy vazifasi – sport tadbirlari o‘quvchilarda halollik, adolat, do‘stlik va hamkorlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi;
- Ijtimoiy-siyosiy vazifasi – jamoaviy sport faoliyati o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, guruhda ishlash va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- Baynalminalakchilik vazifalari – sport o‘quvchilarda millatlararo do‘stlik, hurmat va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek ayrim manbaalarda ko‘rsatilishicha, jismoniy madaniyat va sport tadbirlari vositasida vatanparvarlik, insonparvarlik tarbiyasini yosh avlodga singdirish masalalari bayon qilingan. Bu o‘rinda mutaxassislar sport musobaqalari va tadbirlari jarayonida yoshlarni vatanparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalashning imkoniyatlari yuqori darajada ekanligini e‘tirof etishadi.

Jismoniy madaniyat va sport tadbirlarida faqatgina natijalarni aniqlash, jismoniy imkoniyatlarni namoyish qilish mezonini bo‘libgina qolmay, inson omili va uning har tomonlama tarbiyalanishi masalasiga ham aloqadorligi mazkur mavzu doirasida o‘tkazilayotgan tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilari jismoniy madaniyat va sport tadbirlari quyidagi shakllar asosida amalga oshiriladi:

- jismoniy madaniyat darslari;
- katta tanaffuslardagi uyushtirilgan o‘yinlar;
- sport ko‘ngil ochish tadbirlari;
- sport to‘garaklari;
- bayramlar;
- musobaqalar;
- quvnoq startlar;
- boshqaruv va o‘quv metodikalari markazlaridagi (BOSM) turli sport tadbirlari.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilar jismoniy madaniyat va sport tadbirlarida turli shakllarda ishtirok etadilar. Jumladan, jismoniy madaniyat darslari o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilsa, katta tanaffuslarda uyushtirilgan o‘yinlar ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Sport ko‘ngil ochish tadbirlari va sport to‘garaklari orqali yoshlar o‘z qiziqishlarini amalga oshiradi hamda ma‘naviy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bundan tashqari, bayramlar, musobaqalar va quvnoq startlar o‘quvchilarda do‘stlik, adolat va halollik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, boshqaruv va o‘quv metodikalari markazlarida (BOSM) tashkil

etiladigan turli sport tadbirlari yoshlarning har tomonlama tarbiyalanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, yuqorida sanab o'tilgan tadbirlar orqali o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash masalasi maktab ta'lim tizimida dolzarb vazifa sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviy qiyofasining takomillashuvi bilan bog'liq ijtimoiy-ma'naviy masalalar shu qadar dolzarbki, bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq faoliyat nafaqat maktab, litsey va oliy o'quv yurtlarida, balki oila, mahalla hamda yoshlar bilan ishlovchi jamoat tashkilotlari o'rtasida mustahkam aloqalar asosida izchillik bilan amalga oshirilishi zarur. Faqat shunday tizimli yondashuv orqali ularning dunyoqarashida vatanparvarlik tuyg'usi to'liq shakllanadi va biz ko'zlangan maqsadimizga erishamiz. Shu bilan birga, yoshlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini chuqur anglaydigan, nurli istiqbol va porloq kelajakka ega bo'lgan, yuksak tarbiyali va yetuk shaxslar sifatida kamol topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### Adabiyotlar

1. Ahmedov F.Q., Atamurodov Sh. O'. Boshlang'ich sinflarda jismoniy madaniyat darslari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2017. 139 b.
2. Ahmedov F.Q., Atamurodov Sh.O'. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "VNESHINVESTROPROM" nashriyoti, 2019. 180 b.
3. Axmedov F.Q. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Toshkent: "Ruhsora servis" nashriyoti, 2021.
4. Quvondiqov A.T. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi". O'quv qo'llanma. – Jizzax: "JDPU" davlat muassasasi nashriyoti, 2025. – 420 bet.